

OYBEKNING “QUTLUG‘ QON” ROMANIDA XARAKTER YARATISH MAHORATI VA OBRAZLAR PORTRETI

Nurullayeva Mohigul G‘olib qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19859151>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Qutlug‘ qon” romanida qahramonlar xarakterini yaratish mahorati va obrazlar portretining badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Yo‘lchi, Abdishukur, Mirzakarimboy, Yormat, O‘roz, Gulnor va Nuriniso kabi asosiy hamda ikkinchi darajali obrazlarning tashqi ko‘rinishi, nutqi, xatti-harakati va ichki kechinmalari yaxlit badiiy tizim sifatida o‘rganiladi. Yozuvchi qo‘llagan portret detallar va psixologik tasvirlar qahramon xarakterini ochib berishda muhim badiiy vosita sifatida tahlil etiladi. Natijalar Oybekning obraz yaratishda tashqi tasvir va ichki ruhiy holat uyg‘unligini ta‘minlab, qahramonlarni jonli va ta‘sirchan ifodalaganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Yo‘lchi, Abdishukur, Mirzakarimboy, Yormat, O‘roz, Gulnor, Nuriniso.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности создания характеров и портретных описаний в романе “Qutlug‘ qon”. Рассматриваются как главные, так и второстепенные персонажи — Ёлчи, Абдушукур, Мирзакаримбай, Ёормат, Уроз, Гулнор и Нурунисо — с точки зрения их внешности, речи, поведения и внутреннего мира как единой художественной системы. Особое внимание уделяется портретным деталям и психологическому изображению. Результаты показывают, что Ойбек достигает художественной выразительности через гармоничное сочетание внешнего и внутреннего мира персонажей.

Ключевые слова: Ёлчи, Абдушукур, Мирзакаримбай, Ёормат, Уроз, Гулнор, Нурунисо.

Abstract. This article analyzes character creation and portrait depiction in Oybek’s novel “Qutlug‘ qon”. It examines both major and secondary characters — Yo‘lchi, Abdishukur, Mirzakarimboy, Yormat, O‘roz, Gulnor, and Nuriniso — in terms of their appearance, speech, behavior, and inner world as a unified artistic system. Special attention is given to portrait details and psychological depiction. The study shows that Oybek achieves artistic expressiveness by harmonizing the external and internal dimensions of characters.

Keywords: Yo‘lchi, Abdishukur, Mirzakarimboy, Yormat, O‘roz, Gulnor, Nuriniso.

KIRISH

Oybekning “Qutlug‘ qon” asari haqida adabiyotshunos S.Mirzaev shunday degan edi: “1940 – yilda chop etilgan “Qutlug‘ qon” romani – badiiy jihatdan yetuk asar. Unda mamlakat o‘tmishidagi hayot haqiqati mohirona ko‘rsatilgan... Romanning bosh qahramoni Yo‘lchi yangi hayot kurashchisi sifatida shakllana boshlagan o‘zbek mehnatkashi obrazidir.

U dinamik tarzda – tadrijiy o‘shida aks ettirilgan”.

Qutlug‘ qon o‘zbek realistik adabiyotining yirik namunalaridan biri bo‘lib, unda XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayot va inson taqdiri badiiy umumlashma asosida tasvirlanadi.

Realistik romanda obraz yaratish va portret tasviri yozuvchi mahoratini belgilovchi asosiy vositalardan hisoblanadi, chunki ular qahramonning tashqi ko‘rinishi, ichki dunyosi va ijtimoiy mavqeyini yaxlit holda ochib beradi.

Adabiyotshunos Abdug‘ofir Rasulov: “xarakter yaratishda turli badiiy vositalardan foydalaniladi... Badiiy adabiyot jonli odamlar xakteri bilan muhim”- deydi. Asardagi Yo‘lchi, Gulnor, Mirzakarimboy va boshqa obrazlar orqali turli ijtimoiy qatlamlarga xos xarakterlar va ruhiy holatlar ifodalangan. Ushbu obrazlar romanning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qahramonlar portretida qo‘llangan tashqi ko‘rinish, nutq, xatti-harakat va psixologik tasvirlar ularning individual xarakterini shakllantiruvchi asosiy badiiy vositalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu jihatdan, romandagi xarakter yaratish jarayonini faqat voqealar rivoji orqali emas, balki portret detallar va psixologik tasvir uyg‘unligi asosida tahlil qilish muhim hisoblanadi. Bu esa yozuvchining badiiy mahoratini chuqurroq anglash imkonini beradi. Adabiyotshunos H. Umurov xarakterlar ruhiyati haqida shunday degan edi: “xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi bosh omildir... Romanda yozuvchi uchun ichki dunyoning – ruhning kechinmlarini tashqi qiyofa, holat va xatti-xarakatlarida ko‘rinishini tasvirlash, ya’ni dinamik prinsip asosiy mezonidir.”

Mazkur maqolaning maqsadi “Qutlug‘ qon” romanida xarakter yaratish mahoratini va obrazlar portretining badiiy funksiyasini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda badiiy tahlil va obrazlar tizimini o‘rganishga asoslangan yondashuv qo‘llaniladi.

Natijada Oybekning obrazlarni individual va ijtimoiy tipiklik uyg‘unligida yaratgani hamda ularning badiiy va semantik imkoniyatlarini keng ochib bergani aniqlanadi.

MUHOKAMA

Qutlug‘ qon romanidagi Yo‘lchi — kambag‘al xalq vakili bo‘lib, halolligi, adolatparvarligi va asta-sekin ongli kurashchi darajasiga yetishi bilan uyg‘onayotgan jamiyat timsolini ifodalovchi dinamik obrazdir. Yo‘lchi mard, mehnatkash va adolatparvar edi. U sodda qishloq yigitidan zulmga qarshi isyon ko‘targan qahramon darajasigacha ko‘tariladi. Uning fojiali o‘limi — insoniy qadr-qimmat va erkinlik yo‘lidagi qurbonlik ramzidir.

Yo‘lchi – bosh qahramon, Mirzakarimboyning jiyani, Gulnorning sevgilisi. Asar nomidagi „Qutlug‘ qon“ Yo‘lchining qoni. Uning arslonday gavdasi ko‘rkam, peshanasi keng, chuqur samimiyat ifodasi bilan to‘la yirik ko‘zlari hushyor, ko‘kragi keng, qo‘llari baquvvat, so‘zlarida qishloqcha soddalik va to‘g‘rilik bor edi. Yo‘lchining butun siymosida katta jasorat va g‘urur namoyon bo‘lardi. Yo‘lchi muloyim tabiati, soddaligi, oz bo‘lsa ham, mazali, ma’nili gapi, kuch-quvvati bilan odamlarga yoqardi. U bolalikdanoq otlarni sevar, yaxshi otlarni boqib, tomosha qilishdan har vaqt zavqlanar edi. Yo‘lchi nay chalishni ham bilar edi va yaxshi chalar edi.

Yoshlikda poda boqib yurgan chog‘larida, qamishdan, har xil tog‘ yog‘ochlaridan nay yasar va poyonsiz dalalarda, qoyalar ostida, suvlar bo‘yida chala-chala vaqtini o‘tkazar edi. Ilgari katta naychi bo‘lgan, keyin ko‘zdan qolib, uyga qamalgan bir ko‘knori hamqishlog‘idan ham bir oz ta’lim olgan edi.

Abdishukur — soxta jadid sifatida ko‘rsatilgan, tashqi jihatdan ma’rifat va yangilik tarafdori bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida manfaatparast, ikkiyuzlamachi va eski adolatsiz tuzum manfaatlariga xizmat qiluvchi salbiy obrazdir.

U boylar tomonini olib, ezilgan xalq manfaatlariga qarshi turadi hamda jamiyatdagi tengsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. U manglayi tirishgan, ko'zoynakli, etsiz, qoramtir yuzi ichiga botgan, qisqa mo'ylovining ikki uchini ingichka burab, burnining kataklariga yetkizgan, zamonasiga nisbatan qisqaroq kamzul kiygan o'ttiz besh yoshli, oriqqina kishi bu yerdagilar orasida hamyoni quruq, so'zga to'liq shu edi. Toshkentning "Askiya" mavzuida otasining bir parcha yeri bo'lgan. Butun oilasi bu yerga pomidor, piyoz, rediska, karam va hokazo rezavor ekib, mumkin qadar eldan burunroq bozorga chiqarib, "pul" qilishga tirishar edi.

Abdishukur bu yo'ldan ketmadi. Mahalladagi maktabni bitirib, madrasaga kirdi. Madrasa hujrasiga tiqilib, moddiy qiyinchiliklar ichida to'rt yil o'qidi. Keyin madrasa ilmlaridan ko'ngli soviy boshladi, chunki imom bo'lish uni sira qiziqitirmadi. Buning ustiga u mudarris ham mullavachchalar bilan yaxshi chiqisha olmadi. Tahsilini chala qoldirib, madrasadan chiqdi. Tahsil uchun Istambul yoki Misrga jo'nash orzusi, mablag' yo'qligidan, amalga oshmadi.

Bir qancha vaqt bekor yurgach, "ishbilarmon" amakisining yordami bilan, nihoyat, bir boyga mirza bo'ldi va xizmat uchun To'qmoq shahriga jo'nadi. Bu yerda bir tatar savdogarining xizmatiga o'tib, Qozonga ketdi. Qozonda uch yil yashadi. Tatar savdogarlari orasida aylanarkan, uni-buni tanidi. Yoshlar bilan ham bir qadar aloqa bog'ladi. Gazeta-jurnal mutolaasiga odatlandi.

Toshkentga qaytgach, u o'zini eng "ko'zi ochiq" va "yangi fikrli" musulmonlardan hisoblab, "usuli jadid" maktablarini ochishga tashviqot yurgiza boshladi. Shoirlik iste'dodidan tamom mahrum bo'lishiga qarmay, u "millatni uyg'otish" uchun vazni buzuq, fikri sayoz, rangsiz nazmlar yozdi. Hozir muntazam ravishda turk va tatar matbuotini ta'qib etadi. Tatar ruhoniylaridan Musabegiyev va Rizaiddin Fahritdinlarni buyuk olimlar deb biladi. Turk adibi Ahmad Midhatni yagona "xazinayi ilm va urfon" hisoblab, topinadi. Ruschada kitob mutolaa qila olmasa ham, lekin mukallima tiliga ancha-muncha epchil. U bolalik chog'ida dadasi bilan birga yangi shaharda rezavor sotib yurgandayoq ruschaga tili yugurik bo'lib qolgan edi. Abdishukurni ba'zilar "zakunchi" deydi, ba'zilar "dahriy" deydi. Hozirgi kunda Jamolboyning prikazchigi, do'sti va kengashchisi.

Yormat — Mirzakarimboyning ta'siri va qashshoqlik tufayli o'zligidan ayrilgan, yaqinlariga nisbatan ham boyning manfaatini ustun qo'ygan, mute va ma'naviy majruh kimsa bo'lib, u asar yakunida isyon yo'liga o'tgan, ammo u haqiqatni kech anglagan edi. Yormat - boyning xizmatkori, Gulsumbibining turmush o'rtog'i, Gulnorning otasi. U qirq besh yoshlarda, novcha, chayir odam, yuzida siyrak cho'tir izi qolgan, soqol, mo'ylovlariga anchagina oq tushgan edi. Qo'sh belbog'i chapanichasiga past bog'langan, yurishi ham oliftalarga taqlidni ko'rsatar, uning butun qomati, hamma harakatlari o'ziga zeb bergan, maqtanchoq kambag'alni tasvirlar edi.

Mirzakarimboyning ostonasida o'n olti yildan buyon ishlaydi. Yormat Samarqandning bir qishlog'idan edi Yosh pallasida yetim qolgan. O'g'irlikdan boshqa ishni – jamiki hunarni qilib ko'rgan. Keyin samarqandlik bir boyga qarol bo'lib yollangan. U kishi Mirzakarimboy bilan do'st edi. Yormat Uch-to'rt yil ishlaganimdan keyin, xo'jayinining umri qisqa ekan, o'ladi. Mol-mulki yosh bolalariga qoladi. O'rtada har xil merosxo'rlar ko'payadi. Boylikning tagiga suv ketadi... Shu o'rtada Mirzakarimboy borib qoladi. Toshkentga qaytishda Yormatni ham olib jo'naydi. Chunki boy uning yaxshiligini, to'g'ri, halol ishlaganini bilar edi.

Mirzakarimboy — o'z boyligi va manfaati yo'lida yaqinlarining haqidan ham qaytmaydigan, tashqi tomondan dindor va salobatli ko'rinsa-da, aslida chor amaldorlari bilan til

biriktirgan makkor, ochko'z va berahm zulmkor obrazdir. U - Yo'lchining tog'asi, dong'i butun shaharga tarqagan boy. U ilonning yog'ini yalagan odam edi: hamma boylar kabi, ayyor, mug'ambir, puxta-pishiq; u yuraksiz emas, balki har ishda ehtiyotkorlikni ma'qul ko'rar edi. Mana shular orqasida u, kamtarin mahalla baqqolining o'g'li Karim chittak – kichkina, lekin harakatlari chaqqon va ildam bo'lganidan, yoshlikda shunday laqabi bor edi, – hozir kimsan Mirzakarimboy!.. U Toshkentning eng oldingi boylaridan. Toshkentning eski va yangi shaharlarida to'plab sotuvchi ikki gazlama do'koni, Turkiston o'lkasining turli shaharlarida katta-kichik ayrim do'konlar, Toshkent tevaragidagi turli mavzularda yer-suv va hokazo unga qaraydi.

Bundan tashqari, uning katta o'g'li Hakimboyvachcha yirik paxta savdosi bilan mashg'ul...Mirzakarimboy yerga o'ch odam edi. Yerli-suvli odamlar, qanday bo'lmasin bir sababdan qiynalib qolsalar, darrov ularning pinjiga tiqilar, yo o'rtaga kishi qo'yib, yerni tezroq o'z qo'liga o'tkazishga tirishar edi.

Hatto, yer sotishni xayolga keltirmagan odamlarning yerlarini, – agar ularning yerlari o'z yerlariga chegaradosh bo'lsa, – o'zinikiga qo'shish uchun hech nimadan toymas, har qanday nomus va adolatning betiga tupurar edi. Mirzakarimboy qarzdorlarni uch guruhga bo'lardi.

Birinci guruhdagilar bilan savdo muomalasini avvalgicha davom ettiraveradi. Chunki bularning "qo'li uzun", qo'r-quti ko'p. Ulardan bir kun ozni ko'p qilib oladi. Ikkinchi guruhdagilarga birmuncha do'q qiladi, shu bilan skladlarda cho'kib qolgan gazlamalarni yaxshi baho bilan ularga o'tkazib yuboradi. Uchinchilarning esa dumlaridan mahkam ushlab olib, maymunday o'ynatadi...

Gulnor — o'zbek ayollariga xos andisha, sadoqat va hayoni o'zida mujassam etgan, taqdirning ayovsiz zarbalariga qaramay insoniy sha'nini saqlab qolgan, zulm va ijtimoiy tengsizlik qurboni bo'lgan matonatli ayol timsolidir. U - Yo'lchining sevgilisi, xotini vafot etganidan keyin Mirzakarimboy uylanib olgan qiz. Bu – Yormatning qizi Gulnor edi. Nafis, nozik, ma'sum bir qiz... U hali yosh bo'lsa-da, bo'ychan edi, bichimi ingichka va sambit guli novdasiday adl edi.

Bo'yi yoshiga qaraganda balandroq, lekin butun gavgaga mutanosib. Bolalarcha kulimsiragan va yuqoridan pastga tobo mayin ingichkalashgan oq, tiniq yuzi, qalam bilan chizilgandek ingichka, ma'nodor qoshlari, uzun, quyuq kipriklar orasida yongan yirik qora ko'zlari bor edi. Bu ko'zlarda tuyg'unlik, olijanoblik, ko'ngilning bahoriy tozaligi, iliqligi va qandaydir, parishon xayolchanlik jilvalanar edi. Ammo, Gulnorning kiyimi cho'ri qizlarniki kabi edi: boshida eski, to'zigan qizil shol ro'mol, egnida paxtasi yupqa solingan yoki, yuvila-yuvila yupqalashgan kaltagina qora lipis kamzul, etaklari g'ijimlangan, rangi aynigan chit ko'ylak.

Mo'jaz oyoqlarida mahsi ham yo'q...

O'roz - Yo'lchining qirg'iz do'sti, Mirzakarimboyning ishchilaridan biri. Yo'lchi hammadan ko'ra bu qirg'izni ko'proq sevardi, uning do'mbrasini zavq bilan tinglar, aksar kechalari u bilan suhbatlashar edi. Bundan sakkiz yil avval, O'roz o'n yetti yashar o'spirin ekan, "Qarqara"ga qatnovchi bir qo'ychi boy, yiliga sakkiz so'mdan yollab, Toshkentga keltirgan.

Boynikida uch yil ishlagan, lekin butun mahrumiyatlarga ko'niksa ham, tayoqqa chiday olmagan. O'z yurtiga qaytishga bir yil qolganda, xo'jayini bilan achchiqlashib, boshqa bir yer egasiga qarol yollangan. Yangi xo'jayinda ham ikki yil ishlab, ajralishga majbur bo'lgan. So'ng yana bir necha boylarda sargardon kezzan.

Yurtiga qaytishga imkon topa olmagach, nihoyat, o'tgan yil Mirzakarimboyga qarol bo'lib yollangan, ust-boshi kir, uvada bo'lishiga qaramay, chiroyli, xush-fe'l, yoqimtoy yigit edi.

Qovoqlari va bir qadar yirik yuz yonoqlarining farqiga bormagan odam, uni aslo qirg'iz demas, "sartcha"ni juda yaxshi gapirar edi.

Nuriniso (Nuri) – Mirzakarimboyning Yo'lchiga ko'ngil qo'ygan qizi. Qiz o'n yetti-o'n sakkizga kirgan, o'rta bo'yli, bir qadar keng va qoramtir yuzli, ko'krakdor, to'lagina, lo'ppigina qiz edi, burni bir oz beo'xshovroq esa-da, lekin uning umuman yuz bichimi kelishgan edi. Bodom qovoqlari ostidagi kichik qora ko'zlari, qandaydir noz va ehtiros bilan yonadi. Yo'g'on tim qora ikki soch o'rimi, uning egnidagi oppoq shohi ko'ylak ustidan balqib turgan ko'krak orqali pastga, kindikka qadar tushib turadi. Ko'ylak yengi tirsakka qadar shimarilgan, tiqmachoqday bilaklarida ilon boshli oltin bilaguzuklar yonadi. Qalin tok barglari orasidan siljigan quyosh nurlari uning yuzida, sochlarida tovlanib o'ynaydi. Mirzakarimboyning qizi Nurinisoning tabiatida yengillik bilan makr ustun edi. Uni sinamagan ba'zi ayollar, yengilligini ko'rib: "Bir qop yong'oqday shaldir-shuldur, quvnoq qiz ekan" desalar-da, lekin Nurinisoni yaqindan taniganlar u bilan har vaqt juda ehtiyot bo'lib muomala qilar edilar. Otasining davlati, katta og'iz, hovliqma va takabbur onasining erkalashi qo'shilib, qizga ortiqcha g'urur bergan, harakatlariga o'zboshimchalik, qiliqlariga noz-karashma bag'ishlagan edi. Ota va akalarining huzurida jilla oshib-toshmasa ham, ular yo'q vaqtda qiz o'zini "uy boshi" hisoblar, har bir ishda o'z ra'yini o'tkazishga astoydil urinar, o'jarlik bilan qorani oq deb isbot qilishga tirishar edi. Uning qahqahasi bir lahzada arazga aylanar, qanday bo'lmasin bir bahona topib, kelinoyilari va hatto onasi bilan ham tez-tez aytishib olar edi. Nuri kiyinishni, bezakni sevar edi. Zirak, bilaguzuk, zarkokil, qo'ltiqumor, tillaqosh zebigardon kabi zargarlar to'qib chiqargan oltin, kumush bezaklarga g'oyat o'ch edi, bunday qimmatbaho buyumlardan quti-quti yiqqan... Har hayit uch kungina yasanib-tusanib, og'irligi taxminan bir pudga yetadigan haligi bezaklarini taqib, uncha-muncha boy oila qizlarini taajjublantirar, kambag'al, hatto o'rta hol oila qizlarini oyoq uchi bilan ko'rsatib, tomosha qilar, "kelin ko'rish"ga yurar edi.

XULOSA

Oybekning "Qutlug' qon" romanida xarakter yaratishda portret tasviri va obrazlar tasviri muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yozuvchi qahramonlarning tashqi ko'rinishini berish orqali ularning ichki psixologik holati bilan birga ijtimoiy ahvoli va hayotiy sharoitini ham ochib beradi. Adabiyotshunos T. Boboev xarakter haqida gapirib, "Xarakter, birinchi navbatda, konkret hayotiy sharoitda o'z individual hatti-harakatlari va ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo'ladigan insonning aniq tasviri". Asarda obrazlar tasviri faqat tashqi belgilar bilan cheklanmay, ularning xulq-atvori, muhit bilan munosabati va ruhiy kechinmalari bilan uyg'un holda berilgan. Shu orqali obrazlarning jamiyatdagi o'rni va xarakter xususiyatlari aniqroq namoyon bo'ladi. Portret va obrazlar tasvirining bunday uyg'unligi natijasida xarakterlar ishonarli va hayotiy chiqadi, ichki mazmun esa yanada chuqurlashadi.

Abdurauf Fitrat ta'kidlaganidek, "Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdagi to'liqlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'liqlarni yaratmoqdir." Oybek o'sha to'liqlarni yarata oldi.

Xulosa qilib aytganda, “Qutlug‘ qon” romanida portret va obrazlar tasviri xarakter yaratishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, u orqali qahramonlarning psixologik va ijtimoiy holati birgalikda badiiy jihatdan yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Расулов А. Бадийлик - безавол янгилик. - Т., "Шарқ" 2007-йил, 25-бет. Abdug‘ofir Rasulov
2. Умуров Х. Адабиёт назарияси. - Т., Шарқ, 2002 йил, 40 – бет.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. - Т., "Ўзбекистон", 2002 йил.52-бет.
4. Фитрат.Адабиёт қоидалари. Тошкент: «Ўқитувчи» 1995-йил, 22-б.
5. Мирзаев С. XX аср ўзбек адабиёти. - Т., Янги аср авлоди, 2005-йил. 208 б.
6. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. - Т., Фан, 1990-95.